
TARBIYACHI NUTQIGA QO‘YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Ro‘zmetova Muslima Olliyor qizi¹

¹ Urganch davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim va tabiiy fanlar kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: ruzmetovamuslima@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.06.2025

Revised: 14.06.2025

Accepted: 15.06.2025

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada tarbiyachining og‘zaki nutqiga qo‘yiladigan pedagogik talablar yoritilgan. Nutqning aniqligi, adabiy me‘yorlarga rioya qilish, ifodaviylik, madaniyatatlilik va tarbiyaviy yo‘nalganlik kabi jihatlar chuqur tahlil etiladi. Tarbiyachi nutqining bolaning shaxsiy va ma’naviy kamolotiga ko‘rsatadigan ta’siri alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

KALIT SO‘ZLAR:

tarbiyachi, nutq madaniyati, pedagogik talablar, bolalar nutqi, ifodali nutq, adabiy til

KIRISH. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni mакtab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorga imzo chekdi. Bundan kelib chiqadiki maktabgacha ta’limda bolalarga ta’lim-tarbiya berish uchun avvalo tarbiyachi pedagog pedagogik talablarga javob bera oladigan darajada mahoratli bo‘lishi kerak. Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash - bu uning o‘z kasbkoriga tayyorligini belgilovchi ko‘rsatgich hisoblanadi. Taniqli pedagog, bola-larni ona tiliga оргатиш uslub va uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo‘yicha mashhur mutaxassis, professor E.I.Tixeeva tarbiyachi nutqiga yuqori baho berib, shunday dean edi: “Bog‘chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachining tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g‘oyat samarali va nihoyatda kuchli ta’sir ko‘rsatadigan hamma narsalarni o‘zida birlashtiradigan bo‘lishi kerak. Tarbiyachining tili bekamu ko‘st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachining asosiy vositalaridan biri bu — uning nutqidir. Bolalar dunyoqarashi, ijtimoiy ko‘nikmalari

va, albatta, nutqiy rivojlanishi ko‘p jihatdan tarbiyachining nutqiga bog‘liq. Shu bois tarbiyachining nutqiga qo‘yiladigan pedagogik talablar doimo dolzarb hisoblanadi.

Tarbiyachining nutqi – pedagogik ta’sir vositasi Pedagog olima M.T. Akramova ta’kidlaganidek, “bolaning nutqiy rivojlanishida tarbiyachi nutqi asosiy namuna bo‘lib xizmat qiladi, zero bola avvalo eshitish orqali tilni o‘zlashtiradi”. Shu sababli tarbiyachining har bir so‘zini bola ongli ravishda qabul qiladi va takrorlaydi. Nutqning aniqligi va adabiy til me’yorlariga rioya qilish. Tarbiyachining nutqi adabiy til me’yorlariga to‘liq mos bo‘lishi shart. Tilshunoslar F.R. G‘ulomova va S.S. Jo‘rayevlarning fikricha, tarbiyachi og‘zaki nutqda dialektal va jargon so‘zlardan voz kechib, fonetik, leksik va grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lgan ifodalarni qo‘llashi lozim. Bu bolalarning to‘g‘ri talaffuz va nutqiy madaniyatni egallashida katta rol o‘ynaydi. Ifodaviylik va emotsiyal ta’sirchanlik Psixolog-pedagog L.S. Vygotskiy bolalar bilan muloqotda bo‘layotgan shaxsning nutqi nafaqat ma’lumot manbai, balki emotsiyal-psixologik ta’sir vositasi ekanligini ta’kidlaydi. Tarbiyachining ovoz ohangi, pauzalar, urg‘u va intonatsiyasi bolalarning diqqatini jamlaydi, ularda qiziqish uyg‘otadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib har bir tarbiyachi o‘z nutqidagi nuqsonlarni aks ettiruvchi daftar tutishi, unga kamchiliklarini belgilab borishi, so‘ngra ularni bartaraf etish bøyicha reja tuzib, ishni tashkil etishi kerak. Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo‘yiladigan talablarni juda yaxshi bilgan holda öz nutqidagi kamchiliklarni barbara etib borishi kerak. Tarbiyachi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilar: 1. Nutq tovush tomonining to‘g‘riliği. Agar tarbiyachining nutqi aniq bo‘lsa, jumlalari, sözlarni va har bir tovushni aniq talaffuz etsa, bolalar ona tilining tovush tomonini muvaffaqiyatli o‘zlashtira oladilar. Ko‘p hollarda ayrim tarbiyachilar tovushlarni noaniq talaffuz etadilar, so‘zning tarkibidagi ayrim tovushlarni tushirib ketadilar, tovushlarni o‘rnini almashtiradilar. 2. Adabiy til normalariga muvofiq to‘g‘ri talaffuz. Tarbiyachi adabiy til normalariga amal qilishi, o‘z nutqida turli mahalliy so‘zlarni ishlatmasligi, so‘z urg‘ularini to‘g‘ri ishlatishi lozim. 3. Nutqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan to‘g‘ri foydalanish. Nutqda fikrlar, histuyğularni aniq ifoda etishi lozim. Bunda faqat so‘zlar yordamidagina emas balki nutqning intonatsion ifodaviy ritm, urg‘u va hokazolardan foydalanish orqali erishiladi. 4. Tarbiyachi nutqining jo‘sinqin, intonatsiyaga boy bo‘lishi. Shoshilib gapirish so‘zlar tarkibidagi tovushlarni noaniq talaffuz etishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bolalar bilan nutqiy muloqatda bo‘lganda shoshilmasdan, o‘rtacha tempda gapirish kerak. 5. Tarbiyachi nutqining aniq, oddiy bo‘lishi, fikrlar izchillik bilan bir-biriga bog‘lanib tushunarli bo‘lishi. 6. Tarbiyachi lug‘atining boy bo‘lishi. Tarbiyachi o‘z nutqida so‘zlarni to‘g‘ri va aniq ishlata olsa u holda uning nutqi bolalarga tushunarli bo‘ladi. So‘zlarni to‘g‘ri tanlash tarbiyachi nutqini ifodali, mazmunli bo‘lishini taminlaydi. Yangi so‘zlarni ishlatishga juda ehtiyojkorlik bilan yondashish kerak. Bunda ushbularni hisobga olish lozim: -birinchidan, bolaning yoshini hisobga olib so‘z tanlash; -ikkinchidan, doimo yangi so‘zlarni lug‘atiga kiritish, lug‘atida bor bo‘lgan so‘zlarni faollashtirish, ularni ahamiyatini tushuntirish. Nutqni rivojlantirish, bolaning so‘z

boyligini to‘ldirishda asosiy rolni tarbiyachi va uning nutqi o‘ypnaydi, chunki maktabgacha yoshdagi bola hayotining ushbu davrida ko‘p vaqtini u bilan o‘tkazadi. Bola uchun uning har tomonlama rivojlanishining ajralmas sharti uning o‘qituvchi bilan muloqotidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni bog‘chada o‘qitish va tarbiyalash, ona tilini o‘rgatish, nutq va so‘z boyligini rivojlantirish, nutq aloqasini rivojlantirish kabi ko‘plab muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu umumiy vazifa bir qator maxsus, o‘ziga xos vazifalardan iborat: sog‘lom nutq madaniyatini tarbiyalash, lug‘atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to‘g‘riligini takomillashtirish, so‘zlashuv (dialogik) nutqni shakllantirish, izchil nutqni rivojlantirish, nutqqa qiziqishni oshirish. badiiy so‘z, savodxonlikka tayyorlash. Xulosa qilib aytganda tarbiyachining hikoyasi to‘liq, chirolyi, so‘zlar to‘g‘ri tanlab olingan, grammatik tomondan to‘g‘ri shakllangan, mazmunli va ifodali, mantiqan bog‘langan bo‘lishi kerak. Bolalar bog‘chasida maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z ona tilini o‘zlashtirib, og‘zaki muloqotning eng muhim shakli – og‘zaki nutqni o‘zlashtiradilar. Pedagog bu bilimlarning dirijyori va tayanchi vazifasini bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyati taqlid nutqidir, bu ularning idroki va tafakkurining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Tanqidiy fikrlashga qodir bo‘lmagan bu yoshdagi bolalar atrof-muhitda ko‘rgan va eshitgan hamma narsaga taqlid qilishadi, lekin ko‘pincha ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, bolalar ijobjiy munosabatda bo‘lgan odamlardir. Bola bog‘chada bevosita bog‘langan bunday yaqin odam o‘qituvchidir. Pedagogning xulq-atvori, nutqi, tashqi ko‘rinishi – barchasi bolalarga o‘rnakdir. Bolalarni taqlid qilish bilan bog‘liq fikrlash va idrok etishning o‘ziga xosligi bolalarni tarbiyalash va o‘qitishda, xususan, bolalarga ona tilini o‘rgatishda qo‘llanilishi kerak. Pedagog modeliga qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda tarbiyachining bolalarga qo‘yadigan talablari haqida ham aytish kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Babaeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi T.Fan va texnalogiyalar. 2009. y
2. Babaeva D.R. Nutq ‘stirish nazariyasi va metodikasi. Darling.T.TDPU 2018. y
3. Qodirova F.K. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillar.T.2006. y
4. Q.Shodiyeva. Nutq o‘stirish uslubiyati. “O‘QITUVCHI” nashriyoti T.2008
5. Muzrobovich A. O, Bozorovna C. S, Olimovna E. A. The importance of education in the education of preschool children //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 8. – C. 84-86.